TRANSPORT-LOGISTICS SERVICES: ECONOMIC ESSENCE AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT

Qodirov Sardor Sattorovich
godirovsardor141@gmail.com

ABSTRACT

This article examines the economic essence of transport and logistics services, their role in the national economy, and their importance for regional development. The content and main functions of transport and logistics services, as well as the organizational and economic factors influencing their formation and development, are systematically analyzed. The study also highlights the economic impact of efficient logistics processes, rational utilization of transport infrastructure, improvement of freight and passenger transportation services, and the introduction of digital technologies. The research summarizes the theoretical foundations of transport and logistics service development and substantiates scientific and methodological approaches aimed at effectively utilizing the economic potential of regions, reducing transportation costs, and increasing the competitiveness of logistics services.

Keywords

transport, logistics, transport and logistics services, logistics system, transport infrastructure, economic efficiency, competitiveness, freight transportation, digital logistics, regional development.

TRANSPORT-LOGISTIKA XIZMATLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Qodirov Sardor Sattorovich

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ishida transport-logistika xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va hududiy rivojlanishdagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Transport-logistika xizmatlarining mazmuni, asosiy funksiyalari hamda ularni shakllantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar tizimli ravishda tahlil qilingan. Shuningdek, logistika jarayonlarini samarali tashkil etish, transport infratuzilmasidan oqilona foydalanish, yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlari sifatini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilgan. Tadqiqot natijasida transport-logistika xizmatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari umumlashtirilib, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, transport xarajatlarini kamaytirish va logistika xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar asoslangan.

Kalit so‘zlar: transport, logistika, transport-logistika xizmatlari, logistika tizimi, transport infratuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, yuk tashish, raqamli logistika, hududiy rivojlanish.

KIRISH

Jahon xo'jaligining globallashuvi, xalqaro savdo hajmining kengayishi va elektron tijoratning jadal o'sishi transport-logistika xizmatlariga bo'lgan talabni tubdan oshirmoqda. Xalqaro tadqiqot tashkilotlarining ma'lumotlariga ko'ra, jahon logistika bozori hajmi 2024-yilda 3,93 trln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib 5,95 trln. dollarga yetishi, ya'ni yillik o'rtacha 7,2 foizlik o'sish sur'atini saqlab qolishi kutilmoqda. Bu holat transport-logistika xizmatlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini, uning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi[1].

Tezisning dolzarbligi shundaki, transport-logistika sohasi nafaqat tovar harakatini ta'minlovchi yordamchi soha, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi mustaqil qiymat yaratish tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi dengizga chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlar uchun tranzit-

[1] 1. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. Supply Chain Logistics Management. — McGraw-Hill, 2020.

transport salohiyatini oshirish va logistika xizmatlari sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — transport-logistika xizmatlarining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ularning tasnifini tizimlashtirish hamda rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: xizmat tushunchasining logistika nuqtai nazaridan talqinini yoritish; transport-logistika xizmatlarining tarkibiy tuzilishini aniqlash; nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish; jahon bozori dinamikasini statistik tahlil qilish.

Iqtisodiy adabiyotlarda “xizmat” kategoriyasi moddiy shaklga ega bo'lmagan, ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan va foydalilik yaratuvchi faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Transport xizmati esa ushbu umumiy tushunchaning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning asosiy xususiyati — tovarni fazoviy jihatdan ko'chirish orqali qo'shimcha qiymat yaratishdir. Boshqacha aytganda, transport ishlab chiqarish jarayonini yakunlamaydi, balki uni tovarning iste'mol joyiga yetkazilishi bilan davom ettiradi va nihoyasiga yetkazadi.

Logistika esa transport xizmatidan kengroq tushuncha bo'lib, u xomashyo manbaidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan butun tovar, xizmat va axborot oqimini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonlarining yig'indisini anglatadi. Shu bois “transport-logistika xizmati” tushunchasi ikki tarkibiy qismning — bevosita tashish (transportirovka) va uni ta'minlovchi boshqaruv-tashkiliy funksiyalarning (ekspeditorlik, omborlash, axborot ta'minoti) organik birligini ifodalaydi.

Transport-logistika xizmatining iqtisodiy mohiyatini quyidagi asosiy jihatlar orqali ta'riflash mumkin:


-fazoviy foydalilik yaratish — tovarni ishlab chiqarish joyidan iste'mol joyiga ko'chirish orqali uning qiymatini oshirish;

-vaqt bo'yicha foydalilik yaratish — tovarni kerakli vaqtda, minimal zaxira xarajatlari bilan yetkazib berish;

-tranzaksion xarajatlarni kamaytirish — vositachilik, hujjatlashtirish va nazorat funksiyalari orqali bitim xarajatlarini optimallashtirish;

-qiymat zanjiridagi integratsion vazifa — ishlab chiqaruvchi, distributor va iste'molchi o'rtasidagi uzluksiz aloqani ta'minlash.

Shunday qilib, transport-logistika xizmati — bu tovar, moliyaviy va axborot oqimlarini fazo hamda vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish orqali iqtisodiy sub'ektlar uchun qo'shimcha qiymat yaratuvchi, mustaqil bozor xarakteriga ega bo'lgan xo'jalik faoliyati turidir. Transport-logistika xizmatlarining tarkibiy tuzilishini tizimli tushunish uchun ularni funksional belgilariga ko'ra tasniflash zarur. 1-rasmda ushbu xizmatlarning asosiy tarkibiy elementlari va ularning markaziy tizim bilan o'zaro bog'liqligi sxematik tarzda aks ettirilgan.



1-rasm. Transport-logistika xizmatlarining tarkibiy tuzilishi [2]

[2] Muallif tomonidan tuzilgan

Ko'rsatilgan tarkibiy tuzilishga muvofiq, transport-logistika xizmatlarining asosiy turlari va ularning iqtisodiy vazifalari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Transport-logistika xizmatlarining tasnifi

Xizmat turi	**Mazmuni**	**Iqtisodiy vazifasi**
Transportirovka xizmatlari	Yukni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish (avtomobil, temir yo'l, dengiz, havo, quvur transporti)	Fazoviy tovar ayirboshlashni ta'minlash
Ekspeditorlik xizmatlari	Yuk yuboruvchi va tashuvchi o'rtasida vositachilik, hujjatlashtirish	Tranzaksion xarajatlarni kamaytirish
Omborlash va taqsimlash	Tovarlarni saqlash, komplektlash, taqsimlash markazlari orqali yetkazish	Vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish (zaxira boshqaruvi)
Yuk qayta ishlash (terminal)	Yuklarni ortish-tushirish, konteynerlashtirish, tashish turlarini almashtirish	Multimodal tashish samaradorligini oshirish
Axborot-kommunikatsiya xizmatlari	GPS-kuzatuv, elektron hujjat aylanishi, marshrutlashtirish tizimlari	Shaffoflik va boshqaruv sifatini ta'minlash
Qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlar	Qadoqlash, sug'urtalash, bojxona rasmiylashtiruvi, konsalting	Yakuniy iste'molchi uchun qiymatni oshirish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir xizmat turi mustaqil iqtisodiy vazifani bajarsa-da, ular birgalikda yaxlit logistika zanjirini tashkil etadi. Bunda transportirovka xizmati asosiy (bazaviy) funksiyani bajarsa, qolgan xizmat turlari uni ta'minlovchi va qiymatini

oshiruvchi qo'shimcha funksiyalar sifatida namoyon bo'ladi.

Transport-logistika xizmatlari nazariyasining shakllanishi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlab klassik iqtisodiy maktab vakillari tashish xarajatlarini xalqaro mehnat taqsimoti va qiyosiy ustunlik nazariyasi doirasida tahlil qilgan bo'lsa, XX asr o'rtalariga kelib mustaqil “logistika” fani va kontseptsiyasi shakllandi. 2-jadvalda ushbu evolyutsiyaning asosiy bosqichlari va nazariy yo'nalishlar keltirilgan.

2-jadval. Transport-logistika nazariyasining shakllanish bosqichlari

Nazariy yo'nalish	**Asosiy vakillari**	**Transport-logistikaga oid asosiy g'oyasi**
Klassik iqtisodiyot nazariyasi	A. Smit, D. Rikardo	Tashish xarajatlari mintaqaviy ixtisoslashuv va qiyosiy ustunlikni belgilaydi
Joylashuv nazariyasi (shtandort)	I. Tyunen, A. Veber	Ishlab chiqarishni joylashtirishda transport xarajatlarining minimallashtirilishi
Logistika kontseptsiyasi (XX asr o'rtasi)	D. Bouersoks, D. Kloss	Yagona logistika zanjiri orqali xarajatlarni optimallashtirish
Qiymat zanjiri nazariyasi	M. Porter	Transport-logistika xizmati raqobatbardosh ustunlik manbai sifatida
Zamonaviy tarmoq (SCM) nazariyasi	M. Kristofer, J. Menzer	Yetkazib berish zanjirini boshqarish orqali qiymat yaratish tarmog'i

Zamonaviy sharoitda transport-logistika xizmatlarini tahlil qilishda uchta asosiy nazariy yondashuv keng qo'llaniladi:


-tizimli yondashuv — logistika zanjirini yagona iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqish, unda barcha bo'g'inlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olish;

-xarajatlar optimizatsiyasi yondashuvi — umumiy logistika xarajatlarini (transport, ombor, zaxira) minimallashtirish orqali samaradorlikka erishish;

-qiymat zanjiri yondashuvi — M. Porter nazariyasiga asoslanib, transport-logistikani korxona raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik funksiya sifatida talqin etish[3].

Ushbu yondashuvlarning uyg'unlashuvi natijasida shakllangan zamonaviy Yetkazib berish zanjirini boshqarish (Supply Chain Management — SCM) kontseptsiyasi transport-logistika xizmatlarini nafaqat operatsion, balki strategik boshqaruv darajasiga olib chiqdi.

Jahon transport-logistika bozorining statistik tahlili-Transport-logistika xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati uning bozor ko'rsatkichlari dinamikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro tahliliy agentliklarning (Grand View Research) ma'lumotlariga asosan, jahon logistika bozori barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda (2-rasm va 3-jadvalga qarang).



[3] Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — Free Press, 2022.

2-rasm. Jahon transport-logistika xizmatlari bozori hajmining dinamikasi, 2024–2030-yy[4]. (mlrd. AQSH dollari)

3-jadval. Jahon logistika bozori hajmi va o'sish sur'atlari[5]

Yil	Bozor hajmi, mlrd. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %
2024	3 931,8	—
2025	4 213,5	7,2
2026	4 515,2	7,2
2027	4 838,5	7,2
2028	5 185,0	7,2
2029	5 556,4	7,2
2030 (prognoz)	5 951,0	7,2

Keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon logistika bozori 2024–2030-yillar mobaynida barqaror, deyarli chiziqli o'sish traektoriyasini saqlab qolmoqda. Bunday dinamikaning asosiy omillari qatoriga elektron tijoratning kengayishi, raqamli texnologiyalarning (GPS-kuzatuv, avtomatlashtirilgan omborlar, marshrutlarni optimallashtirish tizimlari) joriy etilishi hamda global ta'minot zanjirlarining diversifikatsiyalashuvi kiradi. Bu, o'z navbatida, transport-logistika xizmatlarining nazariy tadqiqiga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi, chunki amaliyot doimiy ravishda yangi boshqaruv modellari va samaradorlik mezonlarini talab qilmoqda[6].

Transport-logistika xizmatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish nazariy tahlilni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Ushbu

[4] Grand View Research. Global Logistics Market Size & Outlook, 2024–2030. — 2025.
[5] Muallif tadqiqotlari asosid aishlab chiqildi
[6] Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. — 5th ed. — Pearson, 2016.

omillarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin.

Iqtisodiy omillar — yalpi ichki mahsulot dinamikasi, xalqaro savdo hajmi, yoqilg'i va energiya narxlari, valyuta kursi o'zgarishi transport-logistika xarajatlari va tarif siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

Texnologik omillar — raqamlashtirish, sun'iy intellekt asosidagi marshrutlashtirish, avtomatlashtirilgan omborlar va "blokcheyn" texnologiyalari xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi;

Institutsional omillar — bojxona rasmiylashtiruvi tartib-taomillari, transport infratuzilmasiga davlat investitsiyalari, xalqaro tranzit kelishuvlari va normativ-huquqiy baza sohaning institutsional muhitini belgilaydi;

Ijtimoiy-ekologik omillar — atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, "yashil logistika" kontseptsiyasining joriy etilishi, mehnat resurslari malakasi sifat ko'rsatkichlariga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi[7].

Ushbu omillarning o'zaro uyg'unlashgan holda tahlil qilinishi transport-logistika xizmatlari rivojlanishining kompleks nazariy modelini shakllantirish, shuningdek amaliy boshqaruv qarorlarini ilmiy jihatdan asoslash uchun zarur metodologik asos yaratadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, texnologik va institutsional omillarning uyg'un rivojlanishi transport-logistika xizmatlari sifatini tubdan oshirib, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin transport-logistika xizmati — tovar, moliyaviy va axborot oqimlarini fazo hamda vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish orqali qo'shimcha qiymat yaratuvchi mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinishi lozim;

ushbu xizmatlar tizimi olti asosiy tarkibiy qismdan — transportirovka, ekspeditorlik,

[7] G'ulomov S.S. Iqtisodiyotni tartibga solishning axborot tizimlari. — T.: Fan, 2019

omborlash, yuk qayta ishlash, axborot-kommunikatsiya va qo'shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlardan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritadi;

nazariy asoslar klassik iqtisodiy maktablardan tortib zamonaviy SCM kontseptsiyasigacha evolyutsion rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, hozirgi bosqichda tizimli va qiymat zanjiri yondashuvlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda;

jahon bozori statistikasi transport-logistika sohasining barqaror o'sish tendensiyasini (yillik o'rtacha 7,2%) tasdiqlaydi, bu esa sohani ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yanada dolzarblashtiradi;

O'zbekiston sharoitida transport-logistika xizmatlari nazariyasini milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish, xususan tranzit salohiyatni oshirish, kelgusi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Bowersox D.J., Closs D.J., Cooper M.B. Supply Chain Logistics Management. — McGraw-Hill, 2020.

2. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — Free Press, 2022.

3. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. — 5th ed. — Pearson, 2016.

4. Grand View Research. Global Logistics Market Size & Outlook, 2024–2030. — 2025.

5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi transport-logistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. — T., 2023.

6. G'ulomov S.S. Iqtisodiyotni tartibga solishning axborot tizimlari. — T.: Fan, 2019.